



## BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2022- YIL YANVAR-IYUL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-iyul oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 842,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 103,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.



**B**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash




**C**

Ishlab chiqaradigan  
sanoat



**D**


Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash



**E**

Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 39,8 % ga pasayishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 595,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ini tashkil etdi.*

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021- yil

B

1,4 %

2022- yil



B

4,3 %


yanvar-iyul

**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	673,0	1 055,0	382,0
Gips (gips tosh), t.	142 329,0	100 678,0	-41 651,0



**Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari**


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari, mln. soʻm	79 474,9	78 055,5	-1 419,4

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-iyul

FHI\*,% da



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 585,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,9 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-iyul

95,3%

2022-yil yanvar-iyul

90,9%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,1 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 55,4 % (55,6%) va quyi texnologiyali – 42,4 % (42,5%)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,8 % (2021- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 99,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2021- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,1 % (2021- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 103,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,5 % (2021- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 92,2 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Dizel yoqilg‘isi**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**Avtomobil benzini**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**Mazut**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



2020-y. 2021-y. 2022-y.

## Yanvar-iyul

Konyak spirti (konyak distillyati)



Aroq



Uzum vinosi



Paxta linti



Paxta chigiti



Paxta tolasi




2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 542.8 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,5 % ga), 158,4 ming litr uzum vinosi (65,2 %), 2 983,1 ming litr aroq mahsulotlari (3,0 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Mazut, ming t.	47,9	44,2	-3,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	5 312,0	3 437,0	-1 875,0
Paxta tolasi, t.	51 237,0	40 750,0	-10 487,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	50 291,5	46 746,4	-3 545,1
Paxta chigiti, t.	74 714,0	58 220,0	-16 494,0
Suyultirilgan propan va butan, ming t.	8,2	8,5	0,3

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 113,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 89,8 % ga va ishlab chiqarish hajmi 41,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 617,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,1 % ga va ishlab chiqarish hajmi 2 083,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 104,0 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 096,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajmi indeksi 100,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 136,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 56,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 102,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 273,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 44,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,8 % ni, fizik hajm indeksi 99,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6 062,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 192,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 55,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 559,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 205,8 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4,4	4,0	-0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	510,3	471,5	-38,8

**Yanvar-iyul**
**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10 713,5	10 353,7	-359,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	284,3	284,9	0,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,4 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,2 % ga oshganligi kuzatildi. .

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 377,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-iyul

36,2%

2022-yil  
yanvar-iyul

33,7%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-iyul

63,8%

2022-yil  
yanvar-iyul

66,3%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,9 % (2021- yil yanvar-iyul oylarida 2,4 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 26,6 % ni va Buxoro shahri 17,9 % ni, G'ijduvon tumani 11,0 % ni hamda Jondor tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (114,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Jondor tumani (125,8 %), Qorako'l tumani (124,1 %), Kogon tumani (121,6 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (26,6 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (17,9 %) ni, G'ijduvon tumani (11,0 %) ni, Jondor tumani (7,4 %) ni tashkil etdi.*



**3 472,0 mlrd. so'm**


2020- yil yanvar-iyul

**4 355,9 mlrd. so'm**

2021- yil yanvar-iyul

**5 377,3 mlrd. so'm**

2022- yil yanvar-iyul



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil**

**95,3 %**

**2021- yil**

**118,2 %**

**2022- yil**

**114,3 %**

**Yanvar-iyul**

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (39,4 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (16,6 %) ni, G'ijduvon tumani (12,0 %) ni, Kogon tumani (5,2 %) ni tashkil etdi.*

**2 110,7** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyul

**2 768,0** mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyul

**3 565,1** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, (20,3 %) ni, shuningdek, Jondor tumani (14,9 %) ni, Kogon tumani (9,2 %) ni, Kogon shahriga esa (8,3 %) ni tashkil etdi.








**Buxoro viloyati shahar va tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, (45,4 %) ni, shuningdek, Buxoro shahriga (11,0 %) ni, G'ijduvon tumani esa (6,8 %) ni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati**



FHI, % da  
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (327 699,3 ming so'm), Kogon tumani (8 781,3 ming so'm), Kogon shahrida (7 800,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 978,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 710,9 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 74 696,1 ming so'mni, Kogon tumani – 4 294,2 ming so'mni, Kogon shahrida – 3 387,4 ming so'mni, Buxoro shahrida – 3 372,8 ming so'mni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati**



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 988,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,0 % ni tashkil etdi.*



ulushi, % da  
mlrd. soʻm

**Buxoro viloyati**

2020- yil

3 156,7 mlrd. soʻm

2021- yil

3 744,7 mlrd. soʻm

2022- yil

4 988,5 mlrd. soʻm



2020- yil

32,5 %

2021- yil

35,4 %


2022- yil

36,0 %

**2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra**

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**


Bugungi kunda viloyatda 4 916 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 249 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining (25,4 % i) Buxoro shahriga, 595 tasi (12,1 % i) G'ijduvon tumaniga, 392 tasi (8,0 % i) Kogon tumaniga, 373 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga, 364 tasi (7,2 % i) Jondor tumaniga, 356 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 287 tasi (5,8 % i) Vobkent tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Jami yangi tashkil etilgan**



**Jami faoliyat yuritayotgan**



■ yangi tashkil etilgan  
■ faoliyat yuritayotgan